

**XORAZM VOHASIDA DARAXTLARNING EKOLOGIK TARQALISHI BO‘YICHA
TAHLIL.**

Xasanova Oyxanum Adilbekovna

Annotatsiya. Ushbu maqolada Xorazm viloyati hududida tabiiy holda tarqalgan daraxtlar ilmiy nomlari, botanik tavsifi, tarqalish hududlari haqida ma'lumotlar keltirib o'tilgan. Bu maqola bilan tanishish orqali viloyatimiz hududidagi daraxtlar mamlakatimizning boshqa hududlarida ham tarqalganligini bilib olishingiz mumkin.

Kalit so‘zlar: *ekologiya, urug‘, viloyat, ekologiya, daraxt, hudud, o‘simlik.*

O‘simliklar olamining Xorazm vohasidagi tarqalgan turlar soni bo‘yicha ikkita bo‘lim-ochiq urug‘lilar va yopiq urug‘lilar bo‘limlari, ikkita sinf-(bir urug‘pallalilar va ikki urug‘pallalilar), ochiq urug‘lilar ikki oilaga mansub 3 turkum va 3 turdan iborat. Yopiq urug‘lilarning 2 urug‘pallalilar sinfiga oid 19 oila, 36 turkum, 56 tur aniqlandi.

O‘simliklarni ekologik tarqalishi bo‘yicha tahlil qilinganda quyidagi 9 ta ekologik guruhga ajratildi:

Qumli cho‘l muhitida 10 ta tur, kalsiyga boy tuproqlarda 1 ta tur, sho‘r tuproqlarda 4 ta, qurg‘oqchil tuproqlarda 5 ta, tog‘ yonbag‘rida 9 ta, to‘qayzorlarda 5 ta, nam unumdon tuproqlarda 12 ta, unumdon qumloq tuproqlarda 11 ta ,quruq toshli qumli tuproqlarda 2 ta tur tarqalganligi o‘rganildi.

Qumli cho‘l muhitida tarqalgan o‘simliklarga oq va qora saksovul, kambargli sho‘ra, cherkez, tukli qandim, kanolli quyonsuyagi, daraxtsimon juzg‘un; kalsiyga boy tuproqlarda tarqalgan o‘simliklarga oddiy bodom; sho‘r tuproqlarda o‘suvchi o‘simliklarga sharq jiydasi, chilonjiyda; qurg‘oqchil tuproqlarda tarqalgan o‘simliklarga oddiy olxo‘ri, tog‘olcha, olov rangli maklyura, yuksak aylant; tog‘ yonbag‘ridagilarga sharq biotasi, oddiy do‘lana, oddiy anor; to‘qayzorlarda qoratol, oqtol, turangil, kumushsimon chingil; nam unumdon tuproqlarda oq terak, qora terak, majnuntol, sada qayrag‘och, gujum qayrag‘och; unumdon qumloq tuproqlarda madaniy tok, gilos, yapon saforasi; quruq toshli qumli tuproqlarda tarqalgan o‘simliklarga oddiy qarag‘ay, virgin archasi kabilarni misol qilib keltirish mumkin.

O‘simliklarni hayotiy shakllari bo‘yicha tahlil qilinganda 44 ta daraxt, 13 ta buta va 2 ta yarim buta va buta turlari aniqlandi. Xorazm vohasidagi jami daraxtlar 73 % ni, jami butalar 24 % ni, jami yarim buta va buta o‘simliklari 3 % ni tashkil qiladi.

Qoraqalpog‘iston Respublikasi va Xorazm viloyatlarida aholi yashash joylarini ko‘kalamzorlashtirish maqsadida o‘stirish tavsija etilgan daraxt va butalar assortimenti:

Butalar: Amorfa, Yulg‘un, Qandim, Astragal, Cherkez, Ligustrum, Gibiskus;

Yaproqbargli daraxtlar: Qayrag‘och turlari, Gledichiya, Shumtol, Safora, Jiyda, Turang‘il, Aylant, Oq akatsiya, Maklyura;

Ninabargli daraxtlar: Biota, Virgin archasi;

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Afanasiev K. S., Derbennikovye, SSSR florasi, M.- L., 1949;
2. Aghababyan Sh. M. “SSSR pichanzorlari va yaylovlarining em-xashak o'simliklari” 1951. -481-482 b.
3. Altymyshev A. “Qirg'izistonning dorivor boyligi”(tabiiy kelib chiqishi). - Frunze: Qirg'iziston, 1976, - 105-106 - 352 b
4. Barabanov E.I. “Botanika”- oliy o„quv yurtlari talabalari uchun darslik. - M: “Akademiya” nashriyot markazi, 2006, - 309b.